ESKI TERMIZNING IX-XIII ASRLAR KULOLCHILIGI

Almuradov Azizbek Jumaboy o'g'li
O 'zMU Tarix fakulteti Arxeologiya yo'nalishi 2-kurs magistratura talabasi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22852602

Annotatsiya : Ushbu maqolada IX–XIII asrlarda Surxon vohasining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan Eski Termiz shahrida kulolchilik sohasining rivojlanishi tarixiy hamda arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, kulolchilik sohasining shahar hayotidagi o'rni yoritib beriladi. Sopol idishlarning tuzilishi , vazifasi va ahamiyati aytib o'tiladi.

Tayanch so 'zlar: Rabod, xumdon, sirkori idish, kufiy uslubi,,lagan,kosa, Termiz arxeologiya muzeyi, epigrafik bitik, gumbaz.

Аннотация. В данной статье на основе исторических и археологических источников анализируется развитие гончарного ремесла в городе Старый Термез, являвшемся одним из крупнейших политических, экономических и культурных центров Сурхандарьинского оазиса в IX–XIII веках. Также освещается роль гончарного ремесла в жизни города. Рассматриваются строение, функции и значение керамических сосудов.

Ключевые слова: рабад, гончарная печь, глазурованная керамика, куфический стиль, ляган, чаша, Термезский археологический музей, эпиграфическая надпись, купол.

Abstract. This article analyzes the development of pottery in the city of Old Termez, one of the major political, economic, and cultural centers of the Surkhan Oasis during the 9th–13th centuries, based on historical and archaeological sources. It also highlights the role of pottery in the life of the city. The structure, function, and significance of ceramic vessels are discussed.

Keywords: rabad (suburb), pottery kiln, glazed pottery, Kufic style, lagan, bowl, Termez Archaeological Museum, epigraphic inscription, dome.

O'rta Osiyoning qadimgi shaharlari orasida ko'p yillik tarixi va yuksak taraqqiy qilgan madaniyati bilan Termiz shahri alohida o'rin egallaydi. IX-XIII asrlar davomida Termizda hunarmandchilikning kulolchilik sohasi ravnaq topgan. Bu davrda Termizning kulolchilik maktabi shakllangan.Yurtimizning qadimgi tarixi va madaniyatini o'rganishda sopol idishlar muhim ahamiyatga ega. Sopol idishlar qadimgi shahar va qishloqlarning yoshi va o'sha davrda yashagan insonlarning turmush-tarzini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Sopol buyumlar o'sha davr odamlarining kundalik ehtiyojlarini qondirib qolmay, balki o 'z davrining mafkurasini ham ifodalaydigan manba ham hisoblanadi. Eski Termiz shahrining IX-XIII asrlar shaharsozligini o'rganilishida kulolchilik sohasi muhim ahamiyatga ega.

Eski Termiz hududida XX asrning 90-yillariga qadar va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ushbu ko'hna shahar uzoq va boy o'tmishga ega ekanligi aniqlangan. Buning natijasida , 2001-yilda YUNESCO rahnamoligida Eski Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi . [1] Eski Termiz kulolchilik tarixi o 'rganilishi XX asrning

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

30-yillari o‘rtalarida professor M.Ye. Massonning Termiz hududining bir necha joylarida turli asrlarga oid kulollar mahallasi borligini qayd etishi bilan boshlangan. So‘nggi yillarda arxeolog va tarixchi olimlar Termiz kulolchiligi tarixi bo‘yicha tadqiqotlari kengaymoqda. Termiz kulollar mahallalari orasida shahar rabodining shimoliy qismida joylashgani alohida ajralib turadi. Bu kulolchilik mahallasi shaharning iqtisodiy hayotida sopol buyumlar ishlab chiqarish muhim rol o‘ynashi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Ma’lum bo‘lishicha, bu kulolchilik mahallasi , asosan, sirlanmagan sopol idishlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ekan. Hozirda bu yerda o‘ndan ortiq sopol idishlarni pishiradigan katta -kichik xumdonlar aniqlangan. Ularning hammasi bir xil, ya’ni ikki qismdan iborat bo ‘lib, uning pastki qismi o‘txona , yuqori qismi idishlarni pishiradigan xonadan iborat. Ularning ikkala qismi ham aylana shaklda bo‘lgan. Asosan, ularning diametri 1-1.8 m bo‘lgan , sopol pishiradigan xona o‘txonadan maxsus to‘siq bilan ajratilgan. Unda juda ko‘p teshikchalar bo‘lgan va bu teshikchalar orqali issiqlik sopol pishiriladigan xonaga o‘tgan va sopolni pishirgan. Xumdonning devorlari ,asosan, xom g’ishtdan terib chiqilgan.

Xumdonlarning o'txonasi yerga qazib qurilgan. Sopol pishiradigan xonaning usti gumbazsimon shaklda terib chiqilgan. Gumbazning o‘rtasida yoki bir chekkasida maxsus teshikcha bo‘lib, u orqali xumdonga sopol idishlarni pishirish uchun joylashtirganlar va tayyor bo‘lgan idishlarni olishgan. Pishirish jarayonida bu teshikchalar yopib qo'yilgan. Sopollarni yaxshi, sifatli pishirish uchun xumdonda 800-900 daraja issiqlik bo‘lishi zarur. Bunday harorat ikki kun davomida saqlanib turishi kerak bo‘lgan. Agarda issiqlik bundan past yoki yuqori bo'lib ketsa, idishlar yaxshi pishmagan yoki kuyib ketgan. Shuning uchun kulollar xumdonda sopol idishni pishirish jarayonida bir xil haroratni ushlab turishga harakat qilganlar. Bu narsa kuloldan juda ko‘p vaqt va mohirlikni talab qilgan. Kulollar yoqilg‘i sifatida yantoq, qamish va daraxt shoxlaridan foydalanishgan. Qazishmalar davomida ma’lum bo‘ladiki, ochilgan xumdonlar bir nechta usta kulolga qaragan. Har bir kulolning ikkita yoki uchtadan xumdoni bo‘lib, ularda ma’lum turdagi sopol idishlar pishirganlar.

Termizlik kulollar X-XI asrlarda O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib, mukammal sirkori idishlar ishlab chiqara boshladi. Termizda tayyorlangan sirkori sopolni O‘rta Osiyodagi boshqa kulolchilik markazlari mahsuloti bilan solishtirganda, ular Samarqand, Marv, Shoshning mashhur sopol idishlaridan qolishmasligi ma’lum bo‘ldi. Sirli sopol ishlab chiqarish XI asrdan boshlab rivojlandi va XII asrga kelib yuqori darajagacha ko‘tarildi. Bu yaxlit qolipli keramika ishlab chiqarish texnikasi takomillashuvi bilan texnika shunday buyumlarning ishlab chiqarishning keskin oshirish imkonini berdi. [2]

Eski Termiz simob ko‘zachalari (ilm-fanda sferokonuslar deb ataladi) o‘rta asrlarda (asosan IX–XIII asrlarda) simob, qimmatbaho moylar, dori-darmonlar va atirlarni saqlash hamda tashish uchun ishlatilgan o‘ziga xos qalin devorli, kichik sopol idishlardir. Eski Termiz hududida o‘tkazilgan Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (TAKE) va keyingi qazishmalar davomida bu xildagi ko‘zachalardan juda ko‘p miqdorda topilgan. Simob ko‘zachalarining shakli va tuzilishi noksimon yoki tuxumsimon shaklda bo‘lib, tubi odatda o‘tkir (konus shaklida) qilib yasalgan. Devorlari juda qalin, og‘zi esa tor bo‘lgan. Bunday tuzilish ichidagi qimmatbaho va og‘ir suyuqlik (simob)ning to‘kilib ketmasligini hamda bosimga chidamliligini ta’minlagan. [7] Eski Termiz o‘z davrida hunarmandchilik va metallurgiya rivojlangan yirik shahar va savdo chorrahasi bo‘lgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Termizning o‘zida sferokonuslar (simob ko‘zachalari) ishlab chiqaradigan maxsus kulolchilik ustaxonalari va mahallalari mavjud bo‘lgan. Bu ko‘zachalardan harbiy maqsadda — ichiga yonuvchi moddalar (masalan, "gofir" yoki "yunon olovi") solib, dushman ustiga otiladigan portlovchi idish (granata) sifatida ham foydalanilgan degan qarashlar bor. Eski Termiz hududidan topilgan ushbu noyob topilmalar hozirda

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Termiz arxeologiya muzeyi fondida, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Ermitaj muzeyida hamda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida noyob eksponat sifatida saqlanmoqda. [4] Termizning o‘rta asrlarga oid Jarqo‘rg‘on tumani Qorabura yodgorligidan, Eski Termiz qal'asi va Termizshohlar saroyidan, Muzrabod tumani Kampirtepa, Sherobod tumani Xosiyattepa yodgorliklaridan 200 dan ortiq simob ko‘zachalar topilgan bo ‘lib, ular asosan, IX-XV asrlarga oid va ular kulolchilik charxida va qo‘lda yasalgan. [5]

X asrning sopol idishlari, xususan, lagan,kosa,taqsimcha, ko‘zachalar yashil, jigarrang va sarg'ish sirlarga bo ‘yalgan. Boshqa turdagi idishlar esa oq rangga bo‘yalib,sir ustidan kufiy uslubida bitilgan qora va jigarrang yozuvlar bilan bezatilgan. X-XI asrlar davomida idishlarning turlari yanada boyib,turli rangdagi bo‘yoqlar bilan bilan bezatilib, naqshlari ustidan yaltiroq sir bilan qoplangan. IX-XIII asrlar boshlarida Termizning xo'jalik idishlari, ularning turlari quyidagicha: tog'ora, chiroqlar , xumlar, xurmachalar, shamdonlar, filtrlovchi idish. Katta idish-tovoqlar: katta yumaloq xumlar tuxumsimon ko'rinishda ishlangan. Bitta tutqichli va tutqichsiz ishlangan. Xumlarni yasash davomida bir qancha jaroyonlardan o'tgan bo'lib, xum mustahkam pishiq bo'lishi uchun shamot qo'shib tayyorlangan. Bu aralashmalarsiz tayyorlanganda xum aksar hollarda sinish ehtimoli ortadi. Xum uch xil shaklda hosil bo'ladi: xumning keng va qalin ishlangan devori va tuxumsimon shakldagi korpusi, mustahkam tagdondan iborat bo'ladi .

Ko'zalar. Ular ikki guruhga bo'lingan: tor bo'yinli (gardishining diametri - 6,8 sm) va keng og'izli (diametri - 12, 16, 18 sm). Ko'zalar bo'yin qismi odatda silindrsimon, gorizontal bezaklar bilan bezatilgan. Gardishi ichkariga egilgan yoki bir oz tashqariga egilgan holda ishlangan. Ko'zalar odatda bitta tutqichga ega, ikki baldoqli ko‘zlar nisbatan kamroq uchraydi. Ko‘zaning tashqi qismida ustki yuzada o'simliklar yoki chuqurchalar bilan bezatilgan. Ko‘zalarda baldoq qismlari yuqori bo‘yin qismidan qorin qqismiga borib tutashgan. Ko'zalar bezakli, qoida tariqasida, bo'yin va yelkada qismida qo‘llanilgan. Bezak usullari juda xilma-xil, konsentrik tirqishli gorizontal chiziqlar, to'lqinli chiziqlar, Ko'zalar bezakli, qoida tariqasida, bo'yin va yelka qismida ishlash texnikasi juda xilma-xil, konsentrik tirqishli gorizontal chiziqlar, to'lqinli chiziqlar, ko‘rinishli to‘lqinsimon bezaklar, gulbarglari bilan rozetlarning qilingan tasvirlari mavjud.

Termizlik kulollar o‘rta asrlarda simob ko‘zachalar yasashda mohir bo‘lganlar. Bugungi kunda Termiz arxeologiya muzeyi ko‘rgazma zallari va asosiy fondida ko‘plab eng noyob ashyolar saqlanmoqda.

Bunda xilma-xil bo‘rtma tasvirlar, idishlar ko‘rinishini chiroyli qilgan, ayni paytda chizma naqshli sopol idishlari tarqaldi. Bunday uslublashtirilgan islimiy, tarix va epigrafik naqsh bilan odatda shaklan va hajman xilma-xil tarzda bezatilgan. Bu davr kulolchiligida simob ko‘zacha sezilarli o‘rin egallaydi. IX-XIII asr boshlarida Termizda ishlab chiqarilgan sopol buyumlar termizlik kulollarning yuksak kasb-hunar darjasini ko‘rsatdi.

Buyumlar tayyorlashda ko‘proq och yashil firuza, och zangori, to‘q binafsha ranglardan foydalanilgan. Bu davrda keng tarqalgan shisha idishlarning an'anaviy shakllari og‘zi tor va keng, ko‘zalar, qadahlar, kosalar, atir shishalardan iborat bo‘lgan. Misol uchun, IX-XIII asrlarga oid Eski Termiz hududidan topilgan , arab yozuvi tushirilgan sirkori lagan kulolchilik charxida yasalgan. Uning o‘lchami 7/13 sm bo ‘lib, bu laganning bir qismi saqlanib qolgan. Laganning yuza qismida jigarrang bilan epigrafik bitikda “ Lilloh yoki Yo lix ’’ so ‘zlari bitilgan bo ‘lib,ma'nosi shunday “ Alloh uchun , Allohniki, Allohga ’’ degan ma'noni anglatadi.Lagan bo'lagi kley bilan ta'mirlangan. Ushbu topilma hozirgi kunda Termiz Arxeologiya muzeyi o‘rta asrlarga oid fondida saqlanmoqda. [3]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

2018-yilda Eski Termiz shahristoni mudofaa devorining shimoliy tomonida joylashgan o‘rta asrlarga oid xumdon va uning atrofidagi kulolchilik ustaxonasi ochib o‘rganildi. Yodgorlik ustida sochilib yotgan pishiq g‘ishtlarning siniqlari va turli shakldagi sopol buyumlarning siniqlari yodgorlikning quyi qatlamida kulolchilik xumdoni borligidan dalolat bergan. Eski Termizning kulolchilik xumdonlari shahrning o‘rta asrlardagi yirik ustaxonalari sifatida hunarmandchilik taraqiyotida yetakchilik qilgan. Termiz o‘rta sarlarda O‘zbekiston janubidagi yirik savdo-hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan. [6]

Xulosa qilib aytganda, Eski Termiz shahri IX-XIII asrlar davomida Movarounnahrning eng rivojlangan va qulay geografik markazlaridan biri bo‘lgan. Eski Termiz hududida amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida , Termiz shahrida IX-XIII asrlar davomida hunarmandchilikning kulochilik,temirchilik , shishasozlik va boshqa sohalari ravnaq topganligi aniqlangan. Ayniqsa, kulolchilik sohasi o‘zining sifati,soni va turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Ayrim ko‘zalar shunchalik chiroyli geometrik va islimiy naqshlar bilan naqshlangan.Bu Termiz kulollarining mohirligi va yuqori malakali bo‘lganligidan dalolat beradi. Ayrim sopol idishlarning yuzasi arab yozuvi bilan bezatilgan. O‘yib chizilgan naqsh bilan bezatilgan Termiz kulollarining idishlariga o‘xshash idishlar hatto o‘sha davr kulolchilik sohasining yirik markazlaridan bo ‘lgan Samarqand, Marv, Buxoroda ham kamdan-kam uchraydi. Bu Eski Termizning yirik kulolchilik markazlaridan biri bo‘lganligi va Termiz kulolchilik markaziga asos solinganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 27 декабрдаги 545-сонли Қарори «Термиз шаҳрининг 2500 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида» https://lex.uz/docs/-1592417 2.
2. Сурхондарё воҳасида моддий маданият тарихи / С.Н. Турсунов (ва бошқалар).- Тошкент: “Muharrir” нашриёти, 2013.
3. Qadimiy Termiz / Sh.Pidayev . – Toshkent „ Fan “ 2001. 25-28 b.
4. Spaceknowladge.com.
5. Simob ko‘zachalar: Yangi tadqiqotlar,ilmiy xulosalar / M.A.Temirova. – O‘zbekiston muzeylarining dolzarb muammolari. Shahrisabz-2024.
6. IX-XIII asrlarda Termizning uy-ro ‘zg ‘or va xo ‘jalik buyumlari / Z.Narqulova. Journal of international scientific research. 2025.
7. Eski Termiz simob ko ‘zachalari haqida ayrim mulohazalar / M.A.Temirova. – Ijtimoiy -gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2024.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.